
Ekoshahar hududida 30 qavatli turar-joy binosi hamda 11 qavatli mehmonxonani o'z ichiga olgan Eco Tower turar-joy va savdo majmuasi qurilishiga start berildi

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahrida barpo etilayotgan Ekoshahar hududida Eco Tower turar-joy va savdo majmuasi qurilishi boshlanishiga bag'ishlangan tadbirda ishtirok etdi.

30 qavatli jami 240 xonadondan iborat turar-joy binosi, 11 qavatli mehmonxona hamda 5 qavatli savdo markazini o'z ichiga olgan, loyiha qiymati 25 million dollar bo'lgan Eco Tower majmuasida yerosti avtoturargohi, bolalar maydonchasi, dam olish maydonchasi, yashil zonalar, favvora joy oladi.

"Azia Credo Max" MCHJ tomonidan amalga oshirishga kirishilayotgan loyiha 2026 yilda to'la yakunlanadi.

2023-12-25 10:00:34